

O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumaniyazov Yunus Shodurdi o'g'li

Urganch davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada o'spirin shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida bevosita ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar va ularning ahamiyatiga oid nazariy ilmiy yondashuvlarga to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, sosializasiya, ob'yekt, sub'yekt, gurux, muxit, faoliyat, qiziqishlar, dunyoqarash*

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется психологическим факторам, оказывающим непосредственное влияние на процесс социализации личности подростка, и теоретическим научным подходам к их значению.

Ключевые слова: Личность, социализация, объект, субъект, группа, среда, деятельность, интересы, перспективы.

Annotation: This article focuses on psychological factors that have a direct impact on the process of socialization of the personality of a teenager, and theoretical scientific approaches to their significance.

Key words: Personality, socialization, object, subject, group, environment, activity, interests, prospects.

Shaxs jamiyatda shakllanar ekan turli yosh davlarida aynan shu yosh bosqichiga mos ravishda ijtimoiylashib boradi.

Ijtimoiy psixologiya uchun xar bir shaxsning qay tarzda o'z xayot yo'lini belgilashi va jamiyatda shaxslararo munosabatlardagi maqomi - statusi muximdir. Bu borada uni o'rabi turgan katta -mokro ijtimoiy borliq xamda mikro - kichik ijtimoiy borliqning ta'sirlarini o'rganish katta axamiyatga ega.

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilishi, tushunish va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallikni namoyon qilishi xamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini taxlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudot, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni u tug'ilgan onidan boshlab, o'ziga o'xshash insonlar atrofida bo'ladi. Uning butun ruxiy potensiali ana shu ijtimoiy muxitda namoyon bo'ladi. Chunki insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi. Keyin ijtimoiy muloqot ko'rinishlarining barcha faol ob'yekti va sub'yektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda xar birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muxim vazifalaridanbiri. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sosializasiya deb yuritiladi.

Yu.G'. Maxmudov va boshqa mualliflar tahriri asosidagi "Pedagogika va psixologiya" o'quv qo'llanmasida sosializasiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani

egallash va faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning me'yorlari, talablari, kutishlari va ta'sirini kabul kilgan holda, xar bir xarakati va muomalasida uni ko'rsatishi, kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayoni deya ta'riflanadi.

Ijtimoiylashuv, eng avvalo, odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayottan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, balki u xar bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuktai nazaridan sub'yektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun xam bir xil ijtimoiy muxit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chikaradi. Masalan, 10 - 15 nafar akademik lisey o'quvchisini olaylik. Ularning bilimi, ilmni idrok kilishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 nafar o'quvchining xar biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatkichlari iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizasiya jarayonlarining o'zaro bog'liq xamda o'zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlari ro'y beradigan shart-sharoitlarni ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, maxalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliy ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari) va norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlar kiradi. Bu institutlar orasida oila va mahallaning roli o'ziga xos. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun xam xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Ya'ni shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oiladan olinadi va bu kolip jamiyatdagi boshqa guruuhlar ta'sirida saykal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilikda oila bilan bir katorda maxalla xam muxim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi maxalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni maxalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Demak, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqli, sarishtali bo'lib yetishishiga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib, ko'cha-eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash me'yorlar tizimi har bir mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi. Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni ta'lim oladigan, bilimlar tizimini o'zlashtiriladigan maskan sifatida kabul kilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv yuz beradigan maskan. Masalan, dars paytida o'kituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiydek tuyuladi. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'kituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim-boshi, mavzuga sub'yektiv munosabati, qolavsrsa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati xamma narsani bel gilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muxim ahaniyatga ega bo'lgan omil. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi va

talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi. Aks xolda o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi.

Ijtimoiylashuv institutlaridan tashqari, uning oqibati masalasi xam psixologiyada muxim amaliy axamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning xayotda o'z o'rnnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishi. Shu nuktai nazardan olib karalganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga xam fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan vaziyatlarga nisbatan turg'un, barkaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi. Yo'nalganlikning eng muxim tarkibiy kismlarini kuyidagilartashkil etadi:

Mas'uliyat. Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetuk-ligini belgilovchi muxim ko'rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada nazorat lokusi nazariyasi keng tarqaldiki, unga ko'ra xar bir insonda ikki turdag'i mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi turdag'i mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining xayotida ro'y berayottan barcha xodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zini tan oladi. ("men o'zim barcha narsalarga mas'ulman. Mening xayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'liq, shu bois o'zim uchun xam oilam uchun xam o'zim javob beraman"). Mas'uliyatlilikning ikkinchi turi barcha ro'y bergen voqe'a, xodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota-on, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshq.) da deb bilish.

Maqsadlar va ideallar. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat xissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallar. Ular shaxsni keljakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqingga mo'ljallangan rejalarini amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma'naviyatsiz pessimist. Bu maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs haqiqiy imkoniyatlariga bog'likligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnatilishida muhim rol o'ynaydi.

Ideallar - shaxsning xozirgi haqiqiy imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin xar doim xam amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muxit bo'lib, o'sha ideallar ob'yekti bilan shaxs imkoniyatlari o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, o'smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo'lmoqchi. Bu orzuga yaqin keljakda erishib bo'lmaydi, ammo aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidiagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha xodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omil. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jixatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt jihatdan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki e'tiqod shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e'tiqodli insonlarni surmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin. Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy me'yorlarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xhashlar. E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir holatda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega

tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar, an’analarni e’zozlashni, o‘z yaqinlariga mexribon va tanlagan kasbiga, maslagi va e’tiqodiga sodiqligini nazarda tutadi.

Xulosa o‘rnida shuni alovida ta’kidlash lozimki, o’spirinlardagi ijtimoiylashuv jarayoni nafaqat ulardagi dunyoqarash va fikrlash jarayoniga bulardan tashqari mas’uliyat hissining ortishiga, ideallarini amalga oshirishga, maqsad qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васила Каримова. Ижтимоий психология. -Т.: «Fan va texnologiya», Дарслик. Тошкент 2012 йил
2. Ю. Ф.Махмудов, Х .Ж.Худойкулов , Э.Ж.Холмирзаев ,З.Ж. Холмирзаев Педагогик психология Т.: DIZAYNPRESS, 2011.
3. Фозиев Э. Педагогик психология асослари. - Т., 1997.
4. Браймон С. Общество и образование. - М ., 1989.